

O'ZBEK TILIDAGI EGALIK KATEGORIYASINING RUS TILIDA IFODALANISHI

To'xtasinova Sayyoraxon Abdurasul qizi

ToshDO 'TAU O'zbek tili ta'limi fakulteti, 2-kurs

sayyoratukhtasinova0414@gmail.com +998901700438

Annotatsiya: Mazkur maqolada o'zbek tilidagi egalik kategoriyasining o'ziga xos xususiyatlari tavsiflanadi. Ularning rus tilida ifodalanishi tadqiq qilinadi va buni o'zga tilli maktablarda tahsil oluvchi o'quvchilarga o'rgatish bo'yicha ba'zi tavsiyalar beriladi. Qaratqich kelishigining belgisi va belgisiz qo'llanish o'rinlarining ruscha talqinlariga e'tibor qaratiladi.

Kalit so'zlar: egalik kategoriyasi, affikslar, egalik olmoshlari, morfologik tasniflanish, belgisi va belgisiz qaratqich, nisbiy sifat.

O'zbek tilida muayyan narsaning uch shaxsdan biriga taalluqli ekanligini anglatuvchi umumiy ma'nolar va ularni ifodalovchi shakllar tizimi egalik kategoriyasi deyiladi. Tegishlilik, egalik ma'nosini ifodalash uchun xizmat qiladigan affikslar esa egalik affikslari deb yuritiladi. Umumta'lim maktablari uchun darsliklarda bu mavzuda biroz sodda tildagi quyidagi qoida taqdim etiladi: "Ot va otlashgan so'zlarga qo'shib, asos qismda ifodalangan narsa, belgi-xususiyat, harakat-ho'lalarning uch shaxsdan biriga qarashlilikini bildirgan shakllar tizimi egalik qo'shimchalari hisoblanadi" (N.Mahmudov, 2017, 48-bet). Mazkur tadqiqotda egalik shakllarining o'ziga xos xususiyatlarini ko'rib chiqish, ularning rus tilida ifodalanish usullarini o'rganish, o'zga til vakillari bo'lgan maktab o'quvchilari orasida ushbu mavzuga bo'lgan ko'nikma qay darajada ekanligini aniqlash ustida ish olib borildi.

“Rus tilida egalik ma'nosini ifodalaydigan maxsus affikslar yo'q. Egalik ma'nosi rus tilida egalik olmoshlari orqali ifodalanadi (o'zbek tilida bunday egalik olmoshlari yo'q). Egalik olmoshlari boshqa so'zlar bilan birikib kelganda aniqlanmish so'z bilan rod, son va kelishikda moslashadi: *мой отец — otam, твоя школа — maktabing, его письмо — xati*”



(Azizov, 1965, 38-bet). Ushbu vaziyatda egalik olmoshi o'zbek tiliga qaratqich kelishigidagi kishilik olmoshi sifatida tarjima qilinishi ham mumkin: *mening otam, sening maktabing, uning xati* kabi. Ammo quyidagi fikr ushbu holatga yana-da aniqlik kiritadi: "O'zbek tilida agglyutinativlik xususiyati ustunlik qiladi. Qo'shimchalarning ahamiyati leksik ma'no berishi kerak bo'lgan birlikning o'rnini qoplashda, ayniqsa, yuqori. Masalan, *otam — мой отец* (Qodirova, 2021, 11-bet).

Rus tilida o'zbek tilidagi kabi egalik affiksalarining mavjud emasligi bu ikki tilning morfologik tasniflanishi bo'yicha turli xil guruhlariga mansubligi bilan bog'liq. Ma'lumot uchun, tillarning morfologik tipologiyasiga ko'ra o'zbek tili agglyutinativ, rus tili esa flektiv tillar guruhidan o'rin oladi. Biroq ikki tilda ham predmetning qaysi shaxsga tegishli ekanligini ifodalash uchun ishlatiladigan vositalarning borligi bizga o'zga tilda fikrni muqobil variantda yetkazib berish imkonini beradi. "Притяжательные местоимения указывают, к какому лицу принадлежит предмет, и отвечают на вопросы *чей? чья? чьё? чьи?*" (Asilova, 2008, 86-bet).

Shu o'rinda, umumta'lim maktablarining o'zga tilli sinflarida ta'lim oluvchi o'quvchilar o'z nutqida egalik kategoriyasidan qay darajada to'g'ri foydalanishlariga e'tibor qaratish lozim, deb **aytish mumkin**. Shu maqsadda, Toshkent shahar Olmazor tumani 42-umumiy o'rta ta'lim maktabining 5-"D" sinfida kichik kuzatuv-tadqiqoti o'tkazildi. Dastlab quyidagi bir nechta gaplarni o'zbek tilidan rus tiliga tarjima qilish vazifasi o'quvchilarga topshiriq sifatida berildi va bunda o'quvchilar o'zbek tilidagi jummalarni o'z ona tilida qanday ifodalashini tekshirish maqsadi ko'zda tutildi:

1. *Kecha onam uyda uzugini yo'qotib qo'ydi.*
2. *Yaxshi bolalar ukalarini urmaydilar.*
3. *Dadam mening o'yinchog'imni tuzatib berdilar.*
4. *Do'stim menga ruchkasini berib turmadi.*
5. *Singlimning o'yinchog'i sinib qoldi.*

Bunda o'quvchilarning ko'pchiligi rusiyzabon bo'lgani hisobga olinib hamda mavzu yuzasidan osonroq ko'nikma olish maqsadida eng sodda va kundalik turmushda tez-tez ishlatiladigan jumlar tanlab olindi.



Topshiriq bajarib bo'lingach, ularning ishlari yig'ib olinib, tekshirib tahlil qilindi. Aksariyat o'quvchilar tomonidan yo'l qo'yilgan xato gaplarda ega vazifasida kelgan I shaxs egalik ma'nosini ifodalagan so'z bilan bog'liq bo'lgan. Ya'ni *onam, dadam, do'stim* kabi so'zlar *мама, nana, дядя* shaklida tarjima qilingan. Bunda eganing aynan I shaxs birlikdagi so'zga qarashli ekanligini bildiruvchi ma'no anglashilmay qoladi va gap mazmunida g'alizlik yuzaga keladi. Yoki ko'p bora yo'l qo'yilgan yana bir xato III shaxs birlikdagi egalik ma'nosini anglatgan vositasiz to'ldiruvchi vazifasidagi so'zlarning rus tilida egalik olmoshlarisiz ifodalanganligi. Bunda o'quvchilar *uzugini, ukalarini, ruchkasini* so'zlarini to'g'ridan to'g'ri tarjima qilishgan: *кольцо, братьев, ручку* kabi. Ammo bu vaziyatda ushbu otlarning aynan "ona"ga, "bolalar"ga yoki "do'st"ga tegishli ekanligi haqidagi ma'no anglashilmay qoladi va istalgan "uzuk"ni, "ukalar"ni hamda "ruchkalar"ni tasavvur qilishga imkon paydo bo'ladi. Shuning uchun bu jarayonda biz tarjimani *свое кольцо, своих братьев, свою ручку* tarzida amalga oshirishimiz o'rinli deb topiladi.

Yoki quyida keltiriladigan fikrlarga yondashish ham maqsadga muvofiqdir: "Rus tilida III shaxs egalik olmoshlari yo'q, shuning uchun III shaxsda kishilik olmoshining III shaxs shakli (*его, её, их*) ishlatiladi. *Его, её, их* aniqlanmish so'z bilan rod, son va kelishikda moslashmaydi (Azizov, 1965, 39-bet): *его ручьё — uning miltig'i, её книга — uning kitobi, их деду — ularning bolalari* kabi.

Yana bir o'ziga xoslik beshinchi gapda aks etgan: qaratqich va qaralmish munosabatidagi har ikki so'z o'zbek tilida egalik qo'shimchasini olgan holda berilgan. Bunda gapni rus tilida qaratqich kelishini qo'llagan holda tarjima qilish o'rinli bo'ladi, ya'ni – *У моей сестры сломалась игрушка* tarzida. Bunda o'zbek tilidagi gapda o'yinchog'i so'zi egalik qo'shimchasini olgan bo'lsa-da, rus tilida bu so'z egalik olmoshini talab etmaydi.

Xatolar ustida ishlash mobaynida o'quvchilarga mavzu yuzasidan ma'lumotlar berildi, tushuncha va ko'nikmalar hosil qilindi. Topshiriqni bajarishda ta'lim oluvchilar tomonidan ko'plab so'zlarning leksik ma'nolarini xato qo'llash bilan bog'liq kamchiliklar ham ko'zga tashlandi. Buning sababi ulardagi lug'at boyligining yetishmasligi deb **xulosa qilish mumkin** va ularga yangi so'zlarni yozib, yodlab kelish vazifasi berildi.



O'zbek tilida egalik affiksi o'zidan oldin qaratqich kelishigidagi so'zni talab qilmasligi ham mumkin. Bunda affiks erkin birikmada bosh kelishikdagi so'zni boshqaradi: *Orol dengizi, Dehqonobod tumani*. Shuningdek, III shaxsga qarashlilik ma'nosini emas, balki xoslik, umundan ajratilganlik ma'nosini ifodalaydi. Bunday birikmalarni rus tilida ifodalash uchun egalik olmoshlaridan foydalanilmaydi. Tobe so'z nisbiy sifat bilan ifodalangan moslashgan aniqlovchi sifatida aks ettiriladi: *Аральское море, Дехканабадский район* tarzida.

Kishilik olmoshi bilan ifodalanmagan har qanday qaratqich kelishidagi tobe so'z rus tilida ham qaratqich kelishigi bilan beriladi: *maktabning direktori — директор школы, xonaning eshigi — дверь комнаты*.

Belgisiz qo'llangan qaratqich kelishigidagi so'z esa ko'pincha otdan hosil qilingan nisbiy sifat bilan ifodalanadi: *shahar ko'chalari — городские улицы, qishloq maktabi — сельская школа*.

Xulosa qilib aytganda, ikki tilning turlicha morfologik tasniflanishi ularning grammatikasida ayrim xilma-xilliklarni yuzaga keltirsa-da, har ikki tilda tegishlilik ma'nosini ifodalaydigan birliklarning mavjudligi bizga tillar o'rtasidagi ifoda tadqiqqlarini amalga oshirishga imkon yaratadi. O'zga til vakillariga esa o'zbek tilidagi xususiyatlarni o'z ona tillaridagi jihatlar bilan bog'lab o'rgatish ular uchun bir muncha qulayliklarni yaratadi. Bu orqali biz o'zbek tilini dunyoga yoyish, bu tilni o'rganuvchi va bu tilda so'zlashuvchilarning ko'payishiga erisha olamiz. Tilimiz grammatikasini boshqa millat vakillariga o'rgatishning yangi usullarini topish esa pedagogikamizda dolzarb mavzuligi bilan e'tiborga molikdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Azizov, O. (1965). O'zbek va rus tillarining qiyosiy grammatikasi. Toshkent. (38-39b).
2. Mahmudov N. (2017). Ona tili. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 7-sinfi uchun darslik. Toshkent. (48-bet).



3. Qodirova X. (2021). O'zbek va rus tillari sintaksisining tipologiyasi. Toshkent. (11-bet).

4. Asilova G. (2008). Русский язык. Toshkent. (86-bet).

